

NEMIS MAQOLLARINI O'ZBEK TILIGA SEMANTIK-STRUKTUR QIYOSLASHGA DOIR MISOLLAR

Eshonqulov Otabek Safaraliyevich,

SamDCHTI mustaqil tadqiqotchisi

Samarqand davlat chet tillar instituti, otto.otabek@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis tilidagi maqollarning o'zbek tiliga tarjimasidagi semantik-struktur tasniflar ko'rib chiqiladi. Qiyosiy paremiyalar, nemis maqollarining strukturaviy tarkibi, ikki tildagi strukturaviy umumiylik va o'xshashliklar, biroq ularning semantik nomutanosibliklari misollar yordamida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. Semantik-struktura, paremiya, ko'p bo'laklilik, ko'p komponentlik, ikki komponentlik, qiyosiy tahlil.

Abstrakt. This article looks at the semantic-structural classifications when translating German proverbs into Uzbek. Using examples, comparative paroems, the structural structure of German proverbs, structural similarities and similarities between the two languages, but also their semantic disparities are examined.

Keywords. Semantic structure, paremia, multipart, more part component, two-part component, comparative analysis.

Tan olish joizki, paremiologiya sohasida sintaktik struktura tasniflar sistemasini yaratishda ham, qiyoslash-chog'ishtirish tadqiqotlarida ham belgilovchi omil sifatida tan olinmaydi. Nemis va o'zbek tillari paremiyalari tahlili shuni ko'rsatadiki, tur xarakteristikasi sifatida eng umumiy ma'nodagina ishlatilishi mumkin. Biroq, maqollarning sintaktik strukturasi, uning xususiyatlari ham tegishli ekvivalentlarni tanlash imkonini beradi va bu, nemis va o'zbek tillari uchun xarakterlidir.

Qiyosiy paremiologiyada u yoki bu folklordan ehtimoliy o'zlashmalar, parallellar masalasini hal qilishda, ayniqsa, grammatik shakli inversiyaga, xizmatchi so'zlar va sinonimlarni qo'llashga imkon berganida ikkilamchi

ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday holatlarda ham invariantlar haqida gapirish joiz, chunonchi leksik tarkibi sintaktik variatsiyalarni istisno qiluvchi qator maqollar mavjud. Masalan "Qo'l qo'lni taniydi" singari o'zbek maqolida bo'lgani kabi. Umuman olganda, unchalik ko'p bo'lmagan bir qator nemis maqollarida komponent o'z tarkibidadir, masalan: «Keine Rose ohne Dornen» – Tikansiz atirgul bo'lmas; «Kein Haus ohne Winkel» –Burchaksiz uy bo'lmas; «Wie der Mann, so das Werk» – Inson qanday bo'lsa, uning ishi ham o'shanday;«Wie der Abt, so die Brüder»; «Wie der Herr, so der Knecht» - Xo'jayin qanday bo'lsa, yig'in ham shunday va hokazo. Bunday xususiyat so'zlar tartibi o'sha tilning grammatik qonunlari, gapning intonatsion strukturasi yoki alliteratsiya (bir xil undoshlarning takrorlanishi) bilan tavsiflanuvchi tillar uchun ayniqsa xosdir. Zero, nemis maqolining farqlanib turuvchi xususiyati uning grammatik konstruktsiyani buzish va gapdagi bo'laklardan birining, ko'pincha kesimning tushirib qoldirilishi hisobiga sun'iy qisqaligidir. Umuman olganda, bunday holat barqarorlashgan tartibga, ya'ni qolip konstruktsiyaga ega nemischa gaplar uchun xos emas.

Nemis maqollariga ko'p bo'laklilik ham xosdir:

“Geschenkter Essig ist besser als gekaufter Honig” – to'g'ridan to'g'ri tarjimada, sovg'a qilingan sirka (uksus) sotib olingan asaldan yaxshiroq; uzoqdagi arpadan yaqinning somoni yaxshi. “Wer keinen Wagen hat, muss mit dem Karren fahren” – to'g'ridan to'g'ri tarjimada, kimda aravasi (avtomobili) yo'q bo'lsa, u tirkamada yurishi kerak; “Was kann man von einem Rindvieh anders verlangen als ein gutes Stück Fleisch”–Shohdor moldan yaxshi bir bo'lak go'shtdan boshqa yana nimani kutish mumkin; “Eine Fliege setzt sich auch dem König auf die Nase” – Qirolning burniga ham pashsha qo'nadi; maqol komponentlari parallelizmi: “Andere Zeit, anderes Geschmeid” – O'zga davrlar – o'zga odamlar; “Viel Gesetz, viel Gezänk”–Qonun ko'p – baxs ko'p; qarama-qarshi qo'yish:“Bei grossem Geschrei ist wenig Klugreden”– Baqirish ko'p bo'lgan joyda aqlli nutq kam; “Viel Gegacker und wenig Eier” –Qaqaqlash ko'p, ammo tuxum kam; “Blüten sind noch keine Früchte”–Gullar hali meva degani emas; “Viel Blüten, wenig Früchte” – Gul ko'p,

ammo meva kam. Qolaversa, maqolda kontrast parodoksgacha yetib borishi mumkin, masalan: «Ein Mann ist kein Mann» – Bitta inson hali inson emas.

Shuni ham qayd qilish joizki, semantikasi turlicha bo'lgan maqollar bir xil sintaktik strukturaga ega bo'lishi va aksincha, ya'ni turli strukturaga ega bo'lib turib, bir xil semantikani aks ettirishi mumkin. Misollar shuni ko'rsatadiki, maqol tiplari ajratish mezonlaridan biri sifatida grammatik struktura (sintaktik struktura) maqolga muayyan semantik aniqlikni olib kirganida predikativ birliklarning munosabati sifatida umumiy kategoriyalardagina qo'llanishi mumkin. Shunga qaramasdan, “tavsifdagi taqqoslash” tamoyiliga amal qilgan holda nemis va o'zbek tillari maqollarining qisqacha struktur-semantik tahlilini o'tkazishni zarur deb topdik.

Struktur jihatdan nemis maqollari quyidagi asosiy formal andozalar buyicha quriladi:

- Kein A ohne B – A siz B bo'lmaydi, masalan: «Keine Rose ohne Dornen» – Tikansiz atirgul bo'lmas «Kein Haus ohne Winkel» – Burchaksiz uy bo'lmas;
- Wie A so B – A qanday bo'lsa, B ham shunday: «Wie gewonnen, so zerronnen» – Oson topdi – oson yo'qotdi; «Wie der Mann, so das Werk» – Inson qanday bo'lsa, uning ishi ham shunday; «Wie der Abt, so die Brüder» – Pop qanday bo'lsa, yig'in ham shunday; «Wie der Herr, so der Knecht» – Xo'jayin qanaqa bo'lsa, uning ishchisi (batragi, knexti) ham shunday; «Wie der Herr, so 's Gescherr» – Xo'jayin qanaqa bo'lsa, sovg'asi ham shunaqa (kutilmagan);
- Besser (lieber) A, als V – A B dan yaxshiroq: «Besser spät als nie» – Hechdan ko'ra kech yaxshi; «Lieber ein kluger Tadel, als ein dummes Lob» – Aqlli tanqid ahmoqona maqtovdan yaxshiroq;
- Erst A, dann B – avval A, keyin B: «Erst besinn 's, dann beginn 's» – Avval o'yla, keyin bajar; «Erst die Arbeit, dann das Spiel» – Avval ishla, keyin o'yna;

Wer A tut, tut B auch – Kim A ni qilsa, B ni ham qiladi: «Wer A sagt, muss auch B sagen» – A ni aytgan B ni ham aytishi kerak; «Wer flüstert, der lügt» – Kim pichirlasa, o'sha aldaydi; «Wer nichts tut, sündigt genug» – Hech nimani qilmagan, yetarlicha gunoh qiladi; «Wer das Pferd will, muss auch die Zügel nehmen» – Ot

olishni istagan, yuganini ham olishi kerak; «Wer den Wein trinkt, muss auch die Hefe trinken» – Vinoni ichgan achitqisini ham ichishi kerak; «Wer zum Spiel kommt, muss spielen» – O'ynagani kelgan o'ynashi kerak; «Wer den Teufel im Schiffe hat, der muss ihn fahren» – Kimning kemasida shayton bo'lsa, u o'shani o'zi bilan olib ketishi kerak.

Taqqoslashlar natijasidan ko'rinib turibdiki, bunday andozalar bo'yicha maqollar juda ko'p hosil qilingan, bu tipdagi maqollarning struktur xususiyati esa okkazonal maqol sinonimiyasidan dalolat beradi, bu ham til ichidagi va tillararo korrelyatsiyalar tipini aniqlash masalasini ko'rib chiqishda muhim hisoblanadi. Uslubiy jihatdan nemis va o'zbek tillaridagi maqollar adabiy me'yorlarga rioya qilinishi bilan xarakterlanadi.

Nemis tilida maqollarning dastlabki manbalari diniy yozuvlar bo'lganiga qaramasdan, maqollar stilistik planda adabiy uslubdan so'zlashuv uslubigacha bo'lgan ko'plab o'zgarishlarga uchragan. Ko'plab nemis maqollari o'zga madaniyat sohiblari tomonidan nomuqobil qabul qilinadi. Masalan, “Wer Pech hat, bricht den Finger im Arsch ab”, “Alte Hunde reiten auf dem Arsch” singari maqollar nemis maqollar to'plamlarida juda ko'p uchraydi. Mazkur holat maqollar vazifasining diniy sohadan odatdagi muhitga o'tganidan dalolat beradi.

Qiyoslanuvchi tillar paremik tarkibi to'liq manzarasini yaratish maqsadida o'zbek maqollarining qisqacha grammatik tahliliga ham murojaat qilish joiz. Bu yerda shunday xulosaga kelish mumkinki, maqollar har doim ham an'anaviy grammatik qoidalarga bo'ysunavermaydi. O'zbek tili maqollarining katta qismi quyidagi kabi sintaktik qoliplar asosida qurilgan: to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap: Ko'z ko'rsa ham, tish indamaydi qabilidagi maqollar ko'p uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Janet Sobieski. "Wolfgang Mieder, Professor of German and Folklore". Retrieved 17. February 2009.
2. K.Grigas. Einige Probleme der moderne Parömiographie und Parömiologie. In: Acta Ethnographica Hungarica. 2000, Vol. 45, Nos. 3-4, pp365-369.

3. Nazarov P.J. Nemischa-o'zbekcha maqol va matallar /Qisqacha paremiologik lug'at. –Samarqand: SamDCHTI, 2001. -52 bet.
4. O'zbek xalq maqollari, Ikki tomlik, Toshkent, „Fan“ nashriyoti -1987, 1-tom, 323-bet.